21-MAVZU. AMALIY MASHG‘ULOT. UGLEVODORODLARNING SHAR STERJENLI VA MASSHTABLI MODELLARINI YASASH

O‘rganiladigan tushunchalar:
- organik moddalar molekulalarining modellari;
- organik moddalar nomenklaturasi.

Jihozlar: molekulalarning shar va sterjenli modellari to‘plami, turli rangdagi plastilin, gugurt cho‘plari, to‘yingan uglevodorodlar davriy jadval.

I variant. 1. Molekulalarning modellarini yasang: a) butan, b) siklopropan. Molekulyar modellarni daftaringizga chizing. Ushbu moddalarning tuzilish formulalarini yozing. Ularning molekulyar og‘irliklarini toping.

2. Moddalarni nomlang:



3. Moddalarning tuzilish formulalarini yozing: a) buten-2, uning izomeri; b) 3,3-dimetilpentin-1.

II variant. 1. Molekulalarning modellarini yasang: a) 2-metilpropan, b) siklobutan. Molekulyar modellarni daftaringizga chizing. Ushbu moddalarning tuzilish formulalarini yozing. Ularning molekulyar og‘irliklarini toping.

2. Moddalarni nomlang:



3. Moddalarning tuzilish formulalarini yozing: a) 2-metilbuten –1 va uning izomeri; b) propin.

III variant. 1. Molekulalarning modellarini tuzing: a) 1,2-dixloroetan; b) 2,3-dimetilgeksan. Molekulyar modellarni daftaringizga chizing. Ushbu moddalarning tuzilish formulalarini yozing. Dixloroetan havodan necha marta og‘irroq ekanligini aniqlang.

2. Moddalarni nomlang:

3. Moddalarning tuzilish formulalarini yozing:
a) 2-metilbuten – 2 va uning izomeri; b) 3,4-dimetilpentin – 1.

Topshiriqlar

1. Vodorodga nisbatan nisbiy zichligi 39 ga teng bo‘lgan, tarkibida 92,3% uglerod va 7,7% vodorod bor moddaning molekulyar formulasini toping.
2. Propandan tashkil topgan 72 g motor yonilg‘isi to‘liq yonganda qanday hajmdagi karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi?
3. Organik birikma formulasiga ko‘ra, quyidagi moddalarning fazoviy tuzilish formulasini yozing: a) nonan; b) dekan; c) geksan; d) oktan.